

ABDULLA AVLONIY ASARLARI TAHLILI

Rahimjonova Xumora Ziyovuddin qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti

Xorijiy tillar fakulteti talabasi

raximjonovaxumora@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining mashhur namoyondalaridan biri bo'lgan shoir Abdulla Avloniyning asarlari va ularning mazmuni haqida tahlil qilinadi. Abdulla Avloniyning ta'lim sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'langanligi adibning boy pedagogik merosi ta'lim tarbiya masalalarini rivojlantirish uni o'quvchilar qalbida shakllantirishda axloqiy va ma'naviy barkamol tarbiyalashdan milliy maktab va qimmatbaho manba bo'lib xizmat qilganini o'rganib chiqish davr talabiga aylangan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, pedagogika, axloq, maktab, metod.

Absrtact: The most well-known writer of Uzbek literature Abdulla Avloni's books and their meaning are analyzed in this article. The views of Abdullah Avloni in the field of education related to the psche, lifestyle, national values, in this case his enriched pedagogical inherit is national school and valuable source for improving educational process and upbringing of young generation.

Key words : education, upbringing, pedagogue, ethics, school, method.

Аннотация: В данной статье анализируется творчество Абдуллы Авлони. Взгляд Абдулла Авлони в образования тесно связаны с психикой, образом жизни, национальными ценностями узбекского народа, изучение того, служил ли он национальной школой и ценным ресурсов, становится требованием времени.

Ключевые слова: образование, воспитание, педагогика, этика, школа, метод.

XX-asrning 10-yillaridan maktablardagi pedagoglarning bilimi oshirish, ularni maxsus o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash o'quvchilarning savodxonligini oshirish maqsadida amalga oshirilgan bir qancha o'zgarishlar va ro'y berayotgan rivojlanish aniq va ravshan ko'zga tashlanadi. Xuddi shu turdagi vaziyatda yangi maktablarning nazariy asoslarini yaratish va zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanib yoshlarni ulardan bahramand qilish kerak edi. Mana shunday buyuk vazifani ado etish zamonasining ulug' mutafakkirlari Abdulla Avloniy hamda Abdurauf Fitratlar zimmasiga tushdi.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, muhtaram Prezidentimiz Mirziyoyev Sh.M shunday deydi: « Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo

najot-yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur» degan so'zlari har bir maktab binosida yozib qo'yilishi shart».

Abdulla Avloniy – shoir, yozuvchi, dramaturg, publitsist. Uning ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, nafaqat dramaturgiya balki shu birgina pedagogika sohasi uning hayotida alohida muhim sahifalardan birini egallaydi. U faoliyatining ilk bosqichidan to umrining so'nggi damlarigacha o'qituvchilik qildi, pedagogika fanining ham nazariy, ham amaliy masalalari bilan muttasil shug'ullandi, darsliklar yaratdi. Aytish mumkinki, u musulmon sharqi mumtoz pedagogikasining katta bilimdoni, shu bilan birga, XX asr zamonaviy o'zbek pedagogikasining asoschisi, o'zbek tili va adabiyoti o'qitish metodikasi fanining tamal toshini qo'ygan mutafakkirdir. U faoliyati davomida ko'plab zamonaviy pedagoglarni, metodist olimlarni tarbiyalab yetishtirdi. Barkamol insonni voyaga yetkazish, ularni yaxshilikka chorlash, yomonlikdan qaytarish tarbiya orqali amalga oshiriladi. Avloniyning pedagogika haqidagi ta'rifi ham hozirgi zamon ta'rifiga ancha mos keladi: “Tarbiya – “Pedagogiya”, ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur”.

Shu tariqa “Turkiy guliston yoxud axloq” asari ko'plab pedagoglar tavsiya va takliflariga binoan yaratildi. Asarga bo'lgan ehtiyojning kattaligi tufayli o'sha yillariyoq

2 marta — 1913 va 1917-yillarda bosmadan chiqdi. Bu asar, asosan, inson axloqi, ya'ni yaxshi va yomon xulqlar haqida fikr yuritadi. Asarning boshidayoq zamondoshlar e'tibori inson hayotida tarbiyaning buyuk ahamiyatiga jalb etilgan. Inson hech qachon yomon bo'lib tug'ilmaydi yoki yaxshi odamdangina yaxshi farzand yoki yomon odamdangina yomon odam tug'ilmaydi, farzandning barkamol inson bo'lib yetishuvida tarbiyaning ahamiyati buyukligi ta'kidlanadi.

Shunday ekan shoir farzand tarbiyasi bu shaxsiy emas balki, jamiyat, davlat hayotida muhim o'rin tutadigan ijtimoiy ish deb hisoblaydi. Uning fikricha u shu darajada buyuk ishki, Vatan istiqboli ham, millat taqdiri ham tarbiya bilan bog'liq. Abdulla Avloniy so'zlari bilan aytganda, “Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidur. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: “Insonlarning karami dinidadur, muruvvati aqlindatur, hasbi axloqindatur”, demishlar”.

Zabardast o'zbek adabiyoti vakili Avloniy inson tarbiyasini bir biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan guruhlariga ajratdi : badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va axloq tarbiyasi. Xalqimiz “sog' tanda – sog' aql” deganidek, inson uchun avvalo badan (tan) salomat bo'lmog'i zarur, badan sog' bo'lgandagina inson uchun zarur bo'lgan boshqa amallarni singdirish mumkin. Buning uchun inson badanini ichkilik, ko'knor, nasha kabi bevaqt zalolatga, tubanlikka eltuvchi, salomatlikka zarar, “ba'zisi harom, ba'zisi makruh” narsalardan asrashi kerak. Avloniyning yozishicha, insonni komil qilib tarbiyalamoqlik uchun avvalo fikr tarbiyasi judda muhim o'rin egallaydi. Bu vazifani amalga oshirishda

asosiy mas'uliyat o'qituvchi zimmasiga tushadi. Chunki muallim dars jarayonida o'quvchilarni fikrlashga, har qanday voqea-hodisaning mohiyatini chuqur idrok qilishga o'rgatadi. Bu o'rinda Abdulla Avloniy ta'lim va tarbiya birligiga alohida ahamiyat beradi. Aqliy faoliyat va undagi rivojlanish bu inson ongidagi fikrlarning xilma-xilligi avvalo yosh avlodga ta'lim berish jarayonida asosiy o'rin olgan o'qituvchilarning bilim darajalari va ularning saviyasi fikrlash doirasining kengligi o'quvchi tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish aql bilan ish tutishga olib keladi: o'quvchilarni yaxshi xulqlar bilan yomon xulqlarni farqlashga, komil inson uchun zarur bo'lgan yaxshi xulqlarni egallashga, insonni zalolatga yetaklovchi yomon xulqlardan uzoq bo'lishga, faqat yaxshiliklarni o'ylab, yomonliklardan qochib yashashga o'rgatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Avloniy nafaqat adabiyotimizda o'chmas iz qoldirgan buyuk shoir, balki, o'zbek adabiyoti tarixidagi eng buyuk o'qituvchi ham hisoblanadi. Shunday ekan, uning bizga qoldirgan boy merosini o'rganish va ularni tahlil qilish har bir avlod uchun ham farz, ham qarz hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/Abdulla-Avloniy-milliy-uyg-onish-davri-o-zbek-pedagogikasining-asoschisi.htm>.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent. Yangi nashriyot uyi. 2019
3. <https://www.xabar.uz/uz/talim/shavkat-mirziyoyev-maktablarda-qanday>